

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**RESPUBLIKA HUDUDLARINI QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI
YETISHTIRISHGA IXTISOSLASHTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-
TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

So‘nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, tumanlarni meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish, mahsulot yetishtiruvchilarni meva-sabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko‘rilmog‘da.

Jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu sababli, dastlabki bosqichda respublika bo‘yicha 55 ta tuman meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirildi. Biroq, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan hududlarning salohiyatidan samarali foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, tumanlar hududlarini tuproq-iqlim sharoitlariga mos bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ko‘paytirish hamda ilm-fan yangiliklarini keng joriy etish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning:

respublika hududlarini bosqichma-bosqich qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muayyan turlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish;

respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muayyan turlariga ixtisoslashtirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida eksperiment tariqasida 2020 — 2022-yillar davomida Jizzax viloyatining jami 116,3 ming gektar qo‘shimcha yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

2. Quyidagilar:

Jizzax viloyatining ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish ko‘rsatkichlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Jizzax viloyati ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va dorivor o‘simliklar hamda issiqxona xo‘jaliklariga ixtisoslashtirish ko‘rsatkichlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

Jizzax viloyati ayrim hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishda 2020 — 2022-yillar davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha Yo‘l xaritasi” [3-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) tarkibi [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Jizzax viloyati hokimligi va Ishchi guruh (O‘. Barnoyev):

a) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda hududlarni ixtisoslashtirish ko‘rsatkichlari va “Yo‘l xaritasi”da belgilangan topshiriqlarning samarali va o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlasin hamda natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga har chorakda ma‘lumot kiritib borsin;

b) tuman hokimliklari hamda xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashlari bilan birgalikda ikki hafta muddatda hududlarning yer maydonlari ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ushbu yer maydonlarini ustuvor ravishda raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish jarayonini hamda innovatsion va resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga olgan agroklastyerlarni tashkil etuvchi salohiyatli tashabbuskorlar, fermer xo‘jaliklari va boshqa subyektlarga qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun tanlov asosida ajratish choralari ko‘rsin;

v) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda:

ixtisoslashtirilayotgan hududlarda yaxlitlikka jiddiy e‘tibor qaratgan holda tegishli qishloq xo‘jaligi ekinlarining turlariga qarab plantatsiya shaklida eksportbop ekin turlarini joylashtirish va yetishtiriladigan mahsulot hajmlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanishini va bajarilishini;

suv ta‘minoti va infratuzilmasi mavjud bo‘lgan Zomin tumanidagi dengiz sathidan 1 — 1,5 ming metr balandlikda bo‘lgan Qoramozor hududidan 20 gektar yer maydonini Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti balansiga o‘tkazilishini ta‘minlasin;

g) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda Zafarobod tumani F.Xo‘jayev massivida joylashgan 30-son manzil koloniyasiga qarashli 513 gektar samarasiz foydalanib kelinayotgan sug‘oriladigan yer maydonini 2 400 boshli go‘sht yo‘nalishidagi chorva kompleksini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish sharti bilan loyiha tashabbuskorlariga tanlov asosida ajratib berish choralarini ko‘rsin;

d) O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi va “O‘zbekoziqovqatxolding” xolding kompaniyasi bilan birgalikda bir oy muddatda Jizzax viloyatining Zomin, Mirzacho‘l hamda Paxtakor tumanlarida, ularning geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda, transport va infratuzilma obyektlari holati va tutash tumanlarning mahsulot yetishtirish hajmlarini inobatga olib, yirik agrologistik markazlarni tashkil etish loyihalarini amalga oshirish dasturini tasdiqlasin hamda bajarilishini ta‘minlasin;

e) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi, Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi, Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta‘minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi, tijorat banklari hamda loyiha tashabbuskorlari bilan birgalikda bir oy muddatda 2020-yil davomida tashkil etiladigan investitsiya loyihalari bo‘yicha, shuningdek, har yili 1-oktabrga qadar kelgusi yil uchun tashkil etiladigan loyihalarning manzilli dasturini tasdiqlasin va har chorakda bajarilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga batafsil ma‘lumot kiritib borsin;

j) O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi bilan birgalikda 2020-yil III choragida Jizzax viloyatining Baxmal, G‘allaorol, Zomin, Forish, Yangiobod va Sh.Rashidov tumanlaridagi yangi o‘zlashtiriladigan lalmi yer maydonlarida bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun artezian quduq qazish va yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida burg‘ilash ishlarini tashkil etsin;

z) O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta‘minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi hamda tijorat banklari bilan birgalikda manzilli dasturni moliyalashtirishda tijorat banklarining kredit mablag‘lari, xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari va xorijiy investorlar mablag‘larini jalb etish choralarini ko‘rsin.

Bunda, tijorat banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag‘larni shakllantirishga kreditlar ajratishda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosilsiz hamda barpo etilayotgan quvvatlarni tashkil etish davriga kreditning asosiy qarzidan imtiyozli davr beriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (O‘. Barnoyev) Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda mazkur qaror talablarini inobatga olgan holda:

Respublikaning ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish ko‘rsatkichlari;

Respublikaning ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va dorivor o‘simliklar hamda issiqxona xo‘jaliklariga ixtisoslashtirish ko‘rsatkichlari;

Respublikaning ayrim hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishda 2020 — 2022-yillar davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” loyihalarining ishlab chiqilishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta‘minlasin.

5. 2021-yil 1-yanvardan boshlab 2023-yil 1-yanvargacha qadar **5-ilovaga** muvofiq ro‘yxat bo‘yicha chetdan olib kirilayotgan urug‘lar, ko‘chatlar va payvandtaglar, mineral o‘g‘itlar,

o‘simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari, zamonaviy energiya tejovchi issiqxonalar va ularning butlovchi qismlari, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari hamda ularning butlovchi qismlari bojxona bojidan ozod etilsin.

6. Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

bog‘dorchilik xo‘jaliklarida tashkil qilinadigan har 35 gektar intensiv bog‘ va tokzorlarga suv chiqarish uchun burg‘ilangan quduqni, shuningdek, daryolar, kanallar va boshqa suv havzalaridan suvni tortishga nasos stansiyasini qurish ishlari uchun suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste‘mol qilish bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomaga asosan 120 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda subsidiya mablag‘larini ajratish tartibi joriy etilganligi inobatga olinsin;

suvdan foydalanish maqsadida tutash hududlarda joylashgan har birining umumiy maydoni 35 gektardan oshmaydigan bir necha fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘zaro kelishuvi asosida suv chiqarish uchun burg‘ilangan quduqni, shuningdek, daryolar, kanallar hamda boshqa suv havzalaridan suvni tortishga nasos stansiyasini qurish uchun suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste‘mol qilish bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomaga asosan har 35 gektar maydonga 120 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda subsidiya ajratilishi belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ikki oy muddatda:

a) Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda Jizzax viloyatining ayrim hududlarida artezian quduq qazish va yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining 6 mlrd so‘m mablag‘lari evaziga 6 dona burg‘ilash mashinasini xarid qilib, Jizzax viloyati fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga beg‘araz ajratish ishlarini amalga oshirsin;

b) Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi, Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi hamda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda “2020 — 2023-yillarda meva-sabzavotchilik, uzumchilik, polizchilik va kartoshkachilik sohalarida amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ilmiy-texnik loyihalar” dasturini shakllantirsin va loyihalarni dasturda belgilangan muddatlarda Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etib borsin.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi mazkur dastur doirasida Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan loyihalarni belgilangan tartibda moliyalashtirish choralarini ko‘rsin.

8. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan hududlarda tashkil etiladigan har bir agroklasterga xalqaro standartlarga (Global GAP, Organic, ISO 22000 va boshqalar) muvofiq xavfsizlikni boshqarish tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirishda amaliy yordam ko‘rsatish rejasini ishlab chiqib, amalga oshirsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ixtisoslashtirilgan hududlarning, birinchi navbatda Jizzax viloyatining tabiiy gaz va elektr energiyasi ta‘minotini o‘rgangan holda zamonaviy issiqxonalar, intensiv bog‘ hamda tokzorlar tashkil etilayotgan hududlarni energiya resurslari bilan ta‘minlash, shuningdek, qayta tiklanuvchi va noan‘anaviy energiya manbalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan tashabbuskorlar, fermer xo‘jaliklari va boshqa subyektlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [6-ilovaga](#) muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 11-may,
PQ-4709-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
1-ILOVA

Jizzax viloyati ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishlariga ixtisoslashtirish

KO'RSATKICHLARI

T/r	Ixtisoslashgan hudud nomi	Jami ixtisoslashgan yer maydoni, gektar	Ixtisoslas huv	Bog'dorchilik						Uzumchilik					
				bog'dorchilika ixtisoslashgan maydon, gektar	shundan, mavjud bog'maydoni, gektar	yangi bog'barpo etish rejas i, gekt ar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	Uzumchilikka ixtisoslashgan maydon, gektar	shundan, mavjud tokzor maydoni, gektar	Yangi tokzor barpo etish rejas i, gekt ar	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Arnasoy															
1.	Mustaqillik	70	bog'dorchilik	70	5	70		40	30						
2.	Turkiston	255	bog'dorchilik — uzumchilik	60	20	40		40		195		195	20	20	155
3.	Qozog'iston	101	bog'dorchilik	101	10	101		101							
Jami:		426		231	35	211		181	30	195		195	20	20	155
Baxmal															
1.	Qo'shchinor	2971	bog'dorchilik	2971	764	2217	667	700	850						
2.	Baxmal buloqlari	4059	bog'dorchilik	4059	1457	2656	797	1000	859						

3.	Nushkent	1455	bog'dorchi lik	1455	510	945	283	330	332						
4.	A. Usanov	1057	bog'dorchi lik	1057	1079	78	25	29	24						
5.	Turon	219	bog'dorchi lik	219	137	82	18	28	36						
6.	Sangzor	389	bog'dorchi lik	389	389										
7.	Tongotar	339	bog'dorchi lik	339	339										
8.	S. Ayniy	564	uzumchilik							564	11	553	138	208	208
9.	G'allakon	669	uzumchilik							669	213	456	114	171	171
10.	Nurli quyosh	835	uzumchilik							835	20	815	204	306	305
11.	Taraqqiyot	670	uzumchilik							670	38	632	158	237	237
12.	Bog'ishamol	380	uzumchilik	23		23	10	13		357	3	354	88	133	133
13.	Mustaqillik	330	uzumchilik							330	51	279	70	105	105
14.	Turon	1028	uzumchilik							1028	117	911	228	341	342
15.	Uzunbuloq	350	uzumchilik							350	350				
Jami:		15315		10512	4675	6001	180 0	210 0	210 0	4803	803	4000	100 0	150 0	150 0
G'allaorol															
1.	Yangihayot	179	bog'dorchi lik	179	179	54		39	15						
2.	Zarbuloq	2983	bog'dorchi lik — uzumchilik	2132	102	2030	112	970	948	851	194	657	240	240	177

3.	G'allaorol	1089	bog'dorchi lik	1089	153	936	936								
4.	Bo'ston	87	bog'dorchi lik	87	115										
5.	Oqtom	576	bog'dorchi lik	576	576										
6.	D. Yo'ldoshov	118	uzumchilik						118	70	48	48			
7.	T. Xudayorov	1001	uzumchilik						1 001	300	701	281	213	207	
8.	Muzbuloq	1234	uzumchilik						1 234	66	1 169	345	370	454	
9.	Oltinboshq	462	uzumchilik						462	43	419	86	177	155	
Jami:		7729		4063	1125	3020	104 8	100 9	963	3666	673	2993	100 0	100 0	993
Sh. Rashidov															
1.	Yangi hayot	186	bog'dorchi lik	186	186										
2.	X. Nosirov	385	bog'dorchi lik	385	15	370	70	100	200						
3.	Ravot	3 574	bog'dorchi lik	3574	635	1600	100	600	900						
4.	Z.M. Bobur	300	uzumchilik							300		300		100	200
5.	R. Qosimov	105	uzumchilik							105	5	100	15	35	50
Jami:		4 550		4145	836	1970	170	700	110 0	405	5	400	15	135	250
Zarbdor															
1.	Oq buloq	463	bog'dorchi lik	463		463		463							
Jami:		463		463		463		463							
Zafarobod															
1.	Mustaqillik	62	bog'dorchi lik	62		62	10	25	27						
2.	Chimqurg'on	219	uzumchilik							219		219		105	114
Jami:		281		62		62	10	25	27	219		219		105	114

Zomin															
1.	O'zbekiston	193	bog'dorchi lik	193	193										
2.	Molguzar	9575	bog'dorchi lik — uzumchilik	5056	56	5000	420	230 0	228 0	4519	252	4267	162 5	122 5	141 7
3.	Achchi	808	bog'dorchi lik — uzumchilik	297	17	280	180	50	50	511	40	471	271	200	0
4.	Shirin	935	bog'dorchi lik — uzumchilik	754	34	720	200	250	270	181	25	156	156	0	0
5.	Laylak uya	128	bog'dorchi lik — uzumchilik	128	128										
6.	E. Xolmatov	437	bog'dorchi lik	126	126					311	196	115	15	50	50
7.	XRU-17	856	uzumchilik							856	192	664	107	275	283
8.	Zomin-1	261	uzumchilik							261	11	250	250		
9.	Kultepa	75	uzumchilik							75	5	70	70		
Jami:		13267		6554	554	6000	800	260 0	260 0	6713	721	5992	249 2	175 0	175 0
Mirzacho'l															
1.	R. Xaydarov	80	bog'dorchi lik	80		80	20	30	30						
Jami:		80		80		80	20	30	30						
Forish															
1.	Narvon	435	bog'dorchi lik	435		435	100	135	200						
2.	Bog'don	10568	bog'dorchi lik — uzumchilik	300	300					10268	891	9377	364 0	302 8	270 9
3.	Mehnatobod	605	uzumchilik							605	105	500	210	90	200

4.	Forish	500	uzumchilik							500		500		200	300
Jami:		12108		735	300	435	100	135	200	11373	996	10377	3850	3318	3209
Yangiobod															
1.	Xo'jamushkent soy	1037	bog'dorchi lik — uzumchilik	130	30	100	50	50		907	343	564	200	200	164
2.	Balandchaqirs oy	2443	bog'dorchi lik — uzumchilik	1747	8	1739	50	400	1289	696	14	682	150	200	332
3.	Sarmich saxovati	560	bog'dorchi lik — uzumchilik	250		250		100	150	310	5	305		100	205
4.	Qushqand bulog'i	1158	uzumchilik							1158		1158	200	300	658
Jami:		5198		2127	38	2089	100	550	1439	3071	362	2709	550	800	1359
Viloyat bo'yicha jami:		59417		28972	7563	20332	4048	7794	8489	30445	3560	26885	8927	8629	9329

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
2-ILOVA

Jizzax viloyati ayrim hududlarini 2020 — 2022-yillarda sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va dorivor o'simliklar hamda issiqxona xo'jaliklariga ixtisoslashtirish

KO'RSATKICHLARI

T/r	Ixtisoslashgan hudud nomi	Jami ixtisoslashgan yermaydoni, gektar	Ixtisoslashuv	Sabzavotchilik			Poliz			Kartoshkachilik			Dukkakli va dorivor o'simliklar			Issiqxona			Ozuqa ekinlari		
				2020 yil	2021 yil	2022 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil			
Arnasoy																					
1.	Qozog'iston	495	sabzavot — poliz — issiqxona		261		167									30	37				

4.	Samarqand	55	poliz				55													
	Jami:	231					110									17	40	63		
Forish tumani																				
1.	Bog'don	650	dorivor — issiqxona										150	200	200	20	40	40		
2.	Forish	1950	dorivor										650	650	650					
	Jami:	2600											800	850	850	20	40	40		
Yangiobod tumani																				
1.	Xo'jamushkentsoy	637	sabzavot	125	150	361														
2.	Balandchaqirsoy	2558	sabzavot — issiqxona — ozuqa ekin		289	300										10	30	60		1869
3.	Qushqand bulog'i	2203	ozuqa ekinlari																	2203
	Jami:	5398	0	125	439	661										10	30	60		1869
	Viloyat jami:	56893	0	8342	940	981	3999	1447	1120	1310	0	0	30390	850	850	282	329	400	0	1869

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
3-ILOVA

**Jizzax viloyati ayrim hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga
ixtisoslashtirishda 2020 — 2022-yillar davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
bo‘yicha**

“YO‘L XARITASI”

T/r	Tadbirlarning nomlanishi	Ijro muddati	Mas'ullar	
			ijro uchun	nazorat uchun
1.	Zomin tumanidagi "Chap tarmoq" kanaliga 140 metr balandlikdagi "G'allakor" QFY hududining adirlik qismida 250 gektar maydonda "Zomin charos uzum" MChJ tomonidan tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida barpo qilinayotgan uzumzorni suv bilan ta'minlash uchun ikki ko'tarmali 2 dona nasos stansiyasini qurishni 2020-yilda qo'shimcha ajratilgan investitsiya mablag'lari hisobidan moliyalashtirish. Ushbu obyekt bo'yicha buyurtmachi etib — "Jizzaxsuvqurilishinvest" davlat unitar korxonasi belgilash.	2020-yil 1-iyun	Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Ortiqov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ergashev</i>), Jizzax viloyati hokimi (<i>Saliyev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
2.	Zomin, Zarbdor, Paxtakor va Sh.Rashidov tumanlariga xizmatqiluvchi kollektorlarning yer osti sizot suvlarini yig'ib olib chiqib ketuvchi "Jizzax bosh zovuri"ning Zomin, Zarbdor tumanlari hududidan o'tuvchi PK192+00 dan PK680+00 gacha bo'lgan 48,8 km uzunlikdagi kollektorni rekonstruksiya qilish ishlarini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bosqichma-bosqich amalga oshirish. Ushbu obyekt bo'yicha buyurtmachi etib — "Jizzaxsuvqurilishinvest" davlat unitar korxonasi belgilash.	2020 — 2023- yillar	Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Ortiqov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ergashev</i>), Jizzax viloyati hokimi (<i>Saliyev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
3.	Qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan 1850 gektar yerlarni 2020-yilda foydalanishga kiritish uchun Arnasoy tumanidagi 3,45 km lotok tarmoqlarini rekonstruksiya qilish hamda Mirzacho'l tumani Yangidala va Turkiston hududida nasos stansiyasini qurish obyektlarini qo'shimcha ravishda ajratiladigan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirish. Ushbu obyekt bo'yicha buyurtmachi etib — Jizzaxsuvqurilishinvest" davlat unitar korxonasi belgilash.	2020-yil	Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Ortiqov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ergashev</i>), Jizzax viloyati hokimi (<i>Saliyev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)

4.	<p>Quyidagilar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga iqtisodiy va ilmiy asoslangan takliflarni kiritish:</p> <p>Zomin, Baxmal va Yangiobod tumanlaridagi buloqlar va sel suvlarini yig'uvchi sel suv omborini qurish;</p> <p>Zomin tumanidagi "DM-2-1" kanaliga qo'shimcha suv berish maqsadida "DM-1" kanaliga nasos stansiyasini qurish;</p> <p>Zomin tumanidagi Ettikechuv (Mix) qishlog'idan Duoba QFY (Sobiq Poslovskiy) hududlariga suv olish inshooti qurilishi va temir quvurlari orqali 30 km uzunlikda suv tarmoqlarini qurish.</p>	3 oy muddatda	<p>Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>), Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (<i>Islamov</i>), Davlat ekologiya qo'mitasi (<i>Abdurazakov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ergashev</i>), Jizzax viloyat hokimi (<i>Saliyev</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
5.	<p>Jizzax shahar markazidan oqib o'tuvchi 7,8 km bo'lgan xo'jaliklararo kanallar va umumiy uzunligi 29,7 km bo'lgan xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini Jizzax shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufiga o'tkazish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyish loyihasini kiritish.</p>	1 oy muddatda	<p>Jizzax viloyati hokimi (<i>Saliyev</i>), Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
6.	<p>G'allaorol tumanining Sohibkor, Ko'ktolko'kdala va Istiqbol hududlaridagi 3,5 ming gektar, Baxmal tumani Mustaqillik, Turon, Taraqqiyot, Qatortol va Uzunbuloq massivlaridagi 1,3 ming gektar maydonlarni kafolatli suv bilan ta'minlash choralarini ko'rish.</p>	doimiy	<p>Suv xo'jaligi vazirligi (<i>Xamrayev</i>), Jizzax viloyati hokimi (<i>Saliyev</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
7.	<p>Viloyat hududida qishloq xo'jaligida o'zlashtirish mumkin bo'layotgan va gidrogeologik nuqtai nazardan o'rganilmagan maydonlarni aniqlab, ularni yer osti suvlari hisobidan sug'orishni asoslash bo'yicha gidrogeologik tadqiqot ishlari olib borish hamda "Mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish davlat dasturi"ga tegishli o'zgartirishlar kiritish.</p>	1 oy muddatda	<p>Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (<i>Islamov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
8.	<p>Baxmal tumanining tabiiy geografik joylashuvi, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda dengiz sathidan 1,2 — 1,6 ming metr balandlikda joylashgan maydonlarda olma mevasi yetishtirishga ixtisoslashgan "intensiv bog'dorchilik" loyihasini amalga oshirishni tashkil etish.</p>	2020 — 2022 yillar	<p>Jizzax viloyat hokimi (<i>Saliyev</i>), "Davyergeodezkadastr" qo'mitasi (<i>Abdullayev</i>), Milliy bank (<i>Mirsoatov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)

9.	Baxmal tumanida 100 gektar maydonda intensiv usulda olma bog'ini tashkil etib, aholiga lizing shartlari asosida berish.	2021-2022-yillar	Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi (<i>Najimov</i>), Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi (<i>Shoaxmedov</i>), Milliy bank (<i>Mirsoatov</i>)	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
10.	Mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda hududlarning geografik joylashuvi, tuproq-iqlim sharoiti hamda suv resurslari zaxiralaridan kelib chiqib, intensiv usulda bog' va tokzorlar barpo etish bo'yicha hududlar kesimida tavsiyalar ishlab chiqish. Ishlab chiqilgan tavsiyalarni viloyatning ixtisoslashgan hududlarida intensiv bog' va tokzorlar barpo etuvchi tashabbuskorlarga o'quv treninglar tashkil etish orqali yetkazish.	ikki oy muddatda	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi (<i>Najimov</i>), Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi (<i>Boboyev</i>), Jizzax viloyat hokimi (<i>Saliyev</i>)	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)
11.	Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Jizzax ilmiy-tajriba stansiyasi negizida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida hamda mahalliy va xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan "in-vitro" sharoitida mevali daraxtlar payvandtaglari va ko'chatlarini yetishtirish uchun zamonaviy laboratoriya, issiqxona va ko'chatxonalar tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	ikki oy muddatda	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (<i>Umurzoqov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Jizzax viloyat hokimi (<i>Saliyev</i>)	Vazirlar Mahkamasi (<i>Tog'ayev</i>)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
4-ILOVA

Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha ishchi guruhi

TARKIBI

- O'. Barnoyev — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, **ishchi guruhi rahbari**
- J. Xodjayev — O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri, **ishchi guruhi rahbari o'rinbosari**
- Lavozimiga ko'ra — viloyat hokimlarining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, **ishchi guruhi rahbari o'rinbosari**
- B. Tog'ayev — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha kotibiyati mudiri
- B. Norqobilov — O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi
- B. Islomov — O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi raisi

- Sh. Abdurazaqov — O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi
- N. Bakirov — O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi raisi
- A. Abdullayev — “Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi raisi
- B. Ro‘ziboyev — O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari
- A. Ortiqov — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari
- A. Ergashev — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining o‘rinbosari
- A. Xaitov — O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
- A. Abdullayev — O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, “O‘zbekchorvanasl” agentligi direktori
- Sh. Shoaxmedov — Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta‘minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi bosh direktori
- U. Ismoilov — Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi ijro etuvchi direktori vazifasini bajaruvchi
- N. Najimov — Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi direktori
- R. Boboyev — Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi direktori
- S. Qoriyev — Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farnatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi direktori v.b.
- O. Musayev — “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi raisi
- Y. Abdurazaqov — “Parrandasanoat” uyushmasi raisi
- B. Sharipov — “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi raisi
- S. Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari, ishchi guruhi kotibi

Izoh: ishchi guruhi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
5-ILOVA

Bojxona bojlaridan ozod etilayotgan chetdan olib kirilayotgan urug‘lar, ko‘chatlar va payvandtaglar, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari, zamonaviy energiya tejoychi issiqxonalar va ularning butlovchi qismlari, tomchilatib va yomg‘irilatib sug‘orish tizimlari hamda ularning butlovchi qismlari

RO‘YXATI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tovarlar nomi	TIF TN kodi
1.	Urug‘lar, ko‘chatlar va payvandtaglar	0701100000, 1209918000, 0703200000, 1209999900, 1207700000, 1209296000, 0703101100, 0712901100, 060210, 060220
2.	Gidroponika issiqxona uchun kokosli substrati	5305000000
3.	Mineral o‘g‘itlar, insektitsidlar, rodentitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar, nihollar va o‘simliklarning o‘shishini tartibga soluvchi vositalar, dezinfeksiya vositalari	3101 — 3105, 3808

4.	Zamonaviy issiqxona qoplami va boshqa butlovchi qismlari	3926 90 970 9, 7326 90 980 7
5.	Energiyani tejash va soyalash tizimi (po'lat sim, arqon uchun g'altak, noto'qima materiallar)	5603 12 100 0, 7312 10 490 0, 7326 90 500 0
6.	Issiqxonani boshqarish tizimi (ko'p fazali o'zgaruvchan tok dvigatellari, lebedka, raqamli panellar)	8501 51 000 0, 8483 90 890 9, 8425 39 000 4, 8537 10 100 0
7.	Iqlimni kompyuter orqali boshqarish tizimi	8537109100
8.	Isitish tizimlari va ular uchun komponentlar (qozonxonalar, goryelkalar, suv isitgichlar, rezervuarlar va boshqalar)	8402 20 000 9, 8416 20 200 0, 7310 29 900 0, 8481 40 900 0, 8419 11 000 0
9.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimlari hamda ularning butlovchi qismlari	8424 82 100 0, 8424 90 000 0
11.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi uchun foydalaniladigan nasos agregatlari	8413 81 100 0
12.	Tomchilatib sug'orish tizimi uchun quvur va shlanglar ishlab chiqarish uchun pigment va preparatlar	3206190000
13.	Tomchilatib sug'orish tizimi uchun PVX quvurlar	3917239000
14.	Sug'orish uchun tomchilatish trubkasi, tomchilatib sug'orish tizimi uchun egiluvchan quvurlar	3917320009
15.	Tomchilatib sug'orish tizimini ulash uchun furnitura va fittinglar	3917400000
16.	Suv hovuziga yoyiladigan suv o'tkazmaydigan geomembrana to'shamasi, plyonkalar	4002700000
17.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimida suvni tozalash uchun filtrlar (disk filtrlar va metall qumli filtrlar)	8421 21 000 9
18.	Filtrlar ishlab chiqarish uchun metall filtrlarning butlovchi qismlari (yig'ilmagan shaklda)	8421 99 000 8
19.	O'g'itlash dozatori	8481 90 000 0
20.	O'g'itlash uchun avtomatik boshqaruv qurilmasiga ega dozatorli nasos	8413 50 400 0
21.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi uchun suv sarfini hisoblash moslamasi	9028 20 000 0
22.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish avtomatik boshqaruv kontrolleri komplekt detallari bilan	8537 10 910 0
23.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orishni avtomatik boshqaruv tizimida ishlatish uchun meteostansiya.	9015 80 930 0
24.	Suvni avtomatik tozalash filtr kontrolleri (Filtron)	8537 10 910 0
25.	Suvni avtomatik tozalash filtr tizimi uchun elektromagnit solenoid	8504 509500
26.	Elektromagnit solenoidlar uchun kichik fittinglar	3917 40000 0
27.	Elektromagnit solenoidlar uchun U-shaklga ega montaj qigich	7326 90 980 7
28.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi uchun glitserin manometr (10 bar)	9026 20 800 0
29.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi uchun quyosh panellari	8541 50 000 0
30.	Tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi uchun plastik va metall avtomatik klapan (kran) (bosim reduksion klapani, qo'lda boshqarish klapani, 3 bosqichli teskari yuvish klapani, teskari tebratish klapani va bosh.)	8181 10 990 8 8481 40 900 0 8481 30 990 0 8481 30 910 8

31.	Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimi uchun viktualik metall bog'lagich (xomut)	7326 90 980 7
32.	Tomchilatib sug'orish tizimini suv ta'minlash tizimiga ulash uchun kran (sharsimon kran va disksimon kran)	8481 30 990 8 8481 80 850 9
33.	Tomchilatib sug'orish tizimi uchun dumaloq shaklga ega ichki suv tomizgich (kompensatsiya va kompensatsiyasiz kapelnitsa)	8424 90 000 0
34.	Tomchilatib sug'orish tizimi uchun dumaloq shaklga ega tashqi suv tomizgich (kompensatsiya va kompensatsiyasiz kapelnitsa)	8424 90 000 0
35.	Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimi uchun plastik havo klapani	8481 80 990 7
36.	Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimi uchun PVX egiluvchan quvur	3917 32 000 9
37.	Yomg'irlatib sug'orish tizimi uchun sprinkler (metall va plastik shaklga ega)	8424 90 000 0, 8481 90 000 0
38.	Sprinkler stendi (metall i plastik shaklga ega)	9620 00 000 3 3917 23 900 0
39.	Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimi basseyni uchun geomembrana	4002 70 000 0
41.	Kompression va PVX birlashtirish fittinglari	3917 40000 0
43.	Tomchilatib sug'orish tizimi quvurlari, shlanglari va lenta ishlab chiqarish uchun polietilen xomashyo	3901 20 900 9
44.	Dioktilftalat (DOF) plastifikatori	2917 32 000 0
45.	Aktiv kimyoviy bo'yoq moddalar va preparatlar	3204 16 000 0
46.	Pigment va preparatlar	3204 17 000 0
47.	Antioksidantlar va kauchuk va plastmassa uchun tarkibiy stabillashtiruvchilar, boshqalar	3812 39 000 0
48.	Stearin kislotasi	3823 11 000 0
49.	Chiziqli polietilen	3901 10 100 0
50.	Polipropilen	3902 10 000 0
51.	Polistirol	3903 10 000 0
52.	Boshqa komponentlar bilan aralashmagan polivinilxlorid	3904 10 000 0
53.	Plastiklashtirilmagan modifikator	3904 21 000 0
54.	Plastiklashtirilgan modifikator	3904 22 000 0
55.	Polietilentereftalat	3907 50 000 0
56.	Poliamid	3908 10 000 0

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5005-son qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2021-y., 07/21/5005/0154-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qaroriga
6-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4161-son qarori **10-bandida**:

uchinchi xatboshidagi "nasos stansiyalarini qurishga" so'zlaridan keyin "har 35 gektar uchun" so'zlari bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“suvdan foydalanish maqsadida tutash hududlarda joylashgan har birining umumiy maydoni 35 gektardan oshmaydigan bir necha fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘zaro kelishuvi asosida suv chiqarish uchun burg‘ilangan quduqni, shuningdek daryolar, kanallar hamda boshqa suv havzalaridan suvni tortishga nasos stansiyasini qurish uchun suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste‘mol qilish bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomaga asosan har 35 gektar maydonga 120 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda subsidiya ajratilishi belgilansin”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4246-son qarori 7-bandi “b” kichik bandida:

uchinchi xatboshidagi “nasos stansiyasini qurishga” so‘zlaridan keyin “har 35 gektar uchun” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“suvdan foydalanish maqsadida tutash hududlarda joylashgan har birining umumiy maydoni 35 gektardan oshmaydigan bir necha fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘zaro kelishuvi asosida suv chiqarish uchun burg‘ilangan quduqni, shuningdek daryolar, kanallar hamda boshqa suv havzalaridan suvni tortishga nasos stansiyasini qurish uchun suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste‘mol qilish bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomaga asosan har 35 gektar maydonga 120 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda subsidiya ajratilishi belgilansin”.

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020-y., 07/20/4709/0577-son; 12.12.2020-y., 07/20/4919/1616-son; 25.02.2021-y., 07/21/5005/0154-son)

**ПОСТАНОВЛЕНИЕ
ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**О ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ МЕРАХ ПО СПЕЦИАЛИЗАЦИИ РЕГИОНОВ
РЕСПУБЛИКИ НА ПРОИЗВОДСТВЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ**

За последние годы значительно расширены посевные площади, служащие обеспечению внутреннего рынка качественной продукцией и повышению экспортного потенциала страны посредством увеличения объемов производства продовольственной продукции.

Также принимаются практические меры по специализации районов на плодоовощеводстве, объединению производителей продукции в плодоовощеводческие кластеры и кооперации.

Специализация территорий на производстве конкурентоспособной сельскохозяйственной продукции, отвечающей требованиям мировых рынков, показывает правильность избранного пути.

Поэтому на первоначальном этапе 55 районов республики были специализированы на плодоовощеводстве. Однако несмотря на проводимую работу и принимаемые меры в данном направлении, не налажена система эффективного использования потенциала регионов.

